

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021. K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ZIYODOVA LOBAR BAXODIR QIZI

**KOSMETIKA MAHSULOTLARINI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
SINFLASH VA SERTIFIKATLASH**

02.00.09- Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon — 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Ziyodova Lobar Baxodir qizi

Kosmetika mahsulotlarini tashqi iqtisodiy faoliyatda sinflash va sertifikatlash. 3

Зиёдова Лобар Баходир қизи

Классификация и сертификация косметической продукции во внешнеэкономической деятельности.....21

Ziyodova Lobar Bakhodir kizi

Classification and certification of cosmetic products in foreign economic activity.....39

E`lon qilingan ishlar ro`yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI**
DSc.03/29.10.2021. K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ZIYODOVA LOBAR BAXODIR QIZI

**KOSMETIKA MAHSULOTLARINI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
SINFLASH VA SERTIFIKATLASH**

02.00.09- Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T1710 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb - sahifasida (www.andu.uz) va «Ziyonet» Ahborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroqulov Maxmud G'ofurjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Axmadaliyev Maxamadjon Axmadaliyevich
Texnika fanlari doktori, professor

Yulchiyev Aslbek Baxtiyorbekovich
Texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «04» V soat 14⁰⁸ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30; faks: (99871) 223-84-33; e-mail: abshax@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30; faks: (99871) 223-84-33.)

IV Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «13» IV kuni tarqatildi. (2023 yil «13» IV dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



X.Isakov
M.M.Mo'minjonov

X.Isakov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, k.f.d.,DSc

Sh.V.Abdullayev
Sh.V.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kosmetika va parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha Fransiya, Birlashgan Arab Amirligi, Turkiya, Amerika qo'shma shtatlari va Xitoy kabi davlatlar yetakchilik qilib kelishmoqda. Zamonaviy nanotexnologiyalarning kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiiq qilinishi hamda turli xil homashyolarning qo'llanilishi ularning tarkibini tadqiq etish bilan bog'liq usullarning yanada takomillashtirilishini taqozo etmoqda. Shu jihatdan aholiga yetkazib berilayotgan kosmetika mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash, ularning kimyoviy tarkibini fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq etish va olingan natijalar asosida xavfsizlik mezonlarini belgilash borasida ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kosmetika va parfyumeriya mahsulotlarini xalqaro savdo ob'yektlaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, bojxona maqsadlari uchun ushbu turdagi tovarlarning kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi, bajaradigan vazifasi, tovar tayyorlangan material turi, qayta ishlanganlik darajasi va tovarning iste'mol xossalariga asoslangan holda uni tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) asosida to'g'ri tasniflash va har bir tovarga mos kodni to'g'ri qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bugungi kunda kosmetika va parfyumeriya mahsulotlarini bojxona ekspertizasini o'tkazishni takomillashtirish, tashqi savdo faoliyatini liberallashtirish, tovarlarni identifikatsiyalash, taqdim etilgan hujjatlardagi tovar nomlarini tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) ning tovar pozitsiyasi matniga va bo'limlar hamda guruhlariga berilgan izohlarga, shuningdek asosiy talqin qoidalariga mosligi haqidagi ma'lumotlarni aniqlash usullari yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi salomatligini ta'minlash hamda mamlakatning eksport potentsialini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida, iste'molchilarga sifatli va xavfsiz mahsulotlar yetkazish bo'yicha qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, xususan «eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish, bojxona ekspertizasini takomillashtirish»¹ bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, aholining kundalik ehtiyojlaridan biri bo'lgan kosmetika mahsulotlarining eksport potentsialini oshirish, inson salomatligini ta'minlash uchun aholiga sifatli va xavfsiz mahsulotlar yetkazish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, qo'llanish maqsadi, alohida hususiyatlarni o'rganish hamda TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF 60-son Farmoni, 2018 yil 2 noyabrdagi «Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi farmoni

faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida»gi PF 5582-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tovarlarini TIF TN ga muvofiq identifikatsiyalash va tasniflash metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha Y.I.Andreyeva, A.V.Nesterov, N.N.Alekseyeva, G.Yu. Fedotova, M.A.Nikolayeva, S.V.Baramzin, V.G.Draganov, V.Ye.Novikov kabi xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. 02.00.09 Tovarlar kimyosi ixtisosligi O'zbekistonda kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov va texnika fanlari doktori, akademik T.T.Rizqiyev tomonidan 1997 yilda yaratilgan. Bu ixtisoslik rivoji uchun yurtimizda I.R.Asqarov, G'.X.Hamroqulov, A.A.Ibragimov, K.M.Karimqulov, B.Yo.Abdug'aniyev, L.T.Pulatova, Sh.M.Kirgizov, M.M. Xojimatov, Sh.X.Abdulloev, N.X.To'xtaboyev, M.G'.Xamroqulov, R.Murzayev va boshqa olimlar o'zlarining tegishli hissalarini qo'shishgan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan tovarlarni bojxona maqsadlarida identifikatsiyalash, tasniflash va sertifikatlash tamoyillari ishlab chiqilgan, shuningdek ushbu tovarlarni identifikatsiyalash va bojxona ekspertizasi yordamida TIF TN kod raqamlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, sifat menejmenti tizimi va tovarlarni tasniflash» yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ayrim kosmetika mahsulotlarini muvofiqligini baholash tizimini takomillashtirish hamda ularga kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha moddalar asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga hos yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston Respublikasi TIF TN ga kiritish uchun kosmetika mahsulotlari turlari, ularning qo'llanilish maqsadi va tarkibidagi kimyoviy qo'shimchalar asosida yangi tovar kodlarini ishlab chiqish hamda ularga tavsifnoma va izoh tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari amaliyotida qo'llash uchun kosmetika mahsulotlarining bojxona ekspertizasini tashkil etishda sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlashning tezkor va samarali usullarini ishlab chiqish;

kosmetika mahsulotlari tarkibidagi inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi sintetik konservantlar, hususan, paraben(para-gidroksibenzoy kislotasining efirlari)lar hamda ulardagi og'ir metal tuzlari miqdorini zamonaviy fizik kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

GOST 31696 – 2012 “Kosmetik-gigiyenik yuvish vositalari” Standarti

talablariga muvofiq shampun ishlab chiqarish bo'yicha texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish va uning muvofiqligini baholashning mezonlarini yaratish;

shampunlarning muvofiqligini baholash jarayonini takomillashtirish va yengillashtirish maqsadida sertifikatlashtirish idoralari uchun kompleks sinov dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida tarkibida davolovchi va bo'yovchi moddalar saqlagan shampunlar, tirnoq zamburug'ini davolovchi laklar hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovarlar nomenklaturasini VI bo'limining 33 guruhi olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi TIF TNning 3305 tovar pozitsiyasiga kiruvchi kosmetika mahsulotlarini tasniflash va ularni tavsiflovchi usullar hamda bojxona ekspertizasini tezkor va samarali tashkil qilishga xizmat qiluvchi usullar, shuningdek tovarlar ekspertisasi va uning muhim tarkibiy elementlari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida organoleptik usul, pH-metriya, shuningdek yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, IQ-spektroskopiya, refraktometriya, atom absorbtсион spektrometriya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba ayrim turdagi shampunlarning qo'llanilish maqsadi va tarkibidagi kimyoviy qo'shimchalar asosida amaldagi tovar kodlariga qo'shimcha ravishda yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan;

kosmetika mahsulotlari, jumladan shampunlarning bojxona ekspertizasini amalga oshirishda sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlashning tezkor usullari ishlab chiqilgan;

kosmetika mahsulotlari tarkibidagi inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi sintetik konservantlar, hususan, paraben (para-gidroksibenzoy kislotasining efirlari)lar hamda ulardagi og'ir metal tuzlari miqdori zamonaviy fizik kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

ilk bor GOST 31696 – 2012 talablariga muvofiq shampun ishlab chiqarish bo'yicha texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilgan, shuningdek, shampunlarni sertifikatlashtirishning mezonlari yaratilgan;

shampunlarni sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish va yengillashtirish maqsadida sertifikatlashtirish idoralari uchun sinov dasturi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahsulotni me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiqligini baholash va sertifikatlashga asos bo'luvchi shampun ishlab chiqarishning texnologik yo'riqnomasi ishlab chiqilgan;

shampunni amaldagi me'yoriy hujjat talablariga muvofiqligini baholash va tasdiqlash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro hamda milliy qonunchilik talablari o'rganilib, ushbu talablar asosida shampun uchun kompleks sinov dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi asosiy ilmiy izlanishlar va xulosalarda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, infraqizil spektroskopiya, refraktometriya, atom absorbtсион spektrometriya kabi zamonaviy fizik - kimyoviy

tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, shuningdek olingan natijalarni ilmiy nashrlarda chop etilgani va amaliy natijalarni respublika miqyosida sertifikatlashtirish idoralari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatida joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kosmetika mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, tarkibidagi kimyoviy qo'shimchalar hamda iste'mol xususiyatlari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, IQ-spektroskopiya, refraktometriya, atom absorbtсион spektrometriya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kosmetika mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish maqsadida shampun ishlab chiqarish uchun texnologik yo'riqnoma TИ 306305746-01:2020 ishlab chiqilganligi, shampun uchun sinov dasturi yaratilganligi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali uning aslligini aniqlashning tezkor usullari ishlab chiqilganligi hamda ayrim kosmetika mahsulotlari uchun TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqilib, bojxona amaliyotiga taqdim etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalash va TIF TNda tasniflash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kosmetika mahsulotlarini hususan, shampunni tasniflashda kimyoviy tarkibidagi davolovchi hamda bo'yovchi moddalar asosiy mezon ko'rsatkich sifatida tanlab olinib, amaldagi 3305 10 000 0 TIF TN kodi o'rniga 4 ta yangi TIF TN kod raqamlari (3305 10 000 1, 3305 10 000 2, 3305 10 000 3, 3305 10 000 9), tirnoq zamburug'ini davolovchi laklar uchun 3304 30 000 1 - tarkibida davolovchi moddalar saqlagan laklar, 3304 30 000 9-boshqa manikyur va pedikyur vositalari yangi kod raqamlari bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 10 avgustdagi № 16/05-22-0457 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kosmetik mahsulotlarning kod raqamlarini to'g'ri belgilash orqali mamlakat iqtisodiy xavfsizligini himoya qilish va bojxona statistikasini to'g'ri yuritish imkonini bergan;

shampun mahsulotining haqiqiyilgini tasdiqlash maqsadida organoleptik va fizik-kimyoviy parametrlarini tahlil qilishga asoslangan tezkor va samarali usullari bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 10 avgustdagi № 16/05-22-0457 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalash samaradorligini oshirish, ularni aslligini tezkor va samarali aniqlash imkoniyati yaratilgan;

shampunni amaldagi me'yoriy hujjat talablariga muvofiqligini baholash va tasdiqlash tizimini takomillashtirish maqsadida, shampun uchun ishlab chiqilgan kompleks sinov dasturi "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi va uning hududiy filiallari amaliyotiga joriy qilingan ("O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasining 2022 yil 28 noyabrdagi № 12-1162 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, xalqaro hamda milliy qonunchilik talablari o'rganilib, ushbu talablar asosida shampunlarni sertifikatlashtirish jarayonini

takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjuman, shu jumladan, 10 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi materiallari bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasini dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti asoslangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kosmetika mahsulotlarining tavsiflash, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholash, ularni tasniflash va sertifikatlash(adabiyotlar tahlili)**», deb nomlangan birinchi bobida kosmetika mahsulotlarining umumiy tavsifi, ularni kimyoviy tarkibi asosida tasniflash, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholash usullari hamda 02.00.09- "Tovarlar kimyosi" ixtisosligining yaratilish tarixi, maqsadi va vazifalari, bojxona maqsadlarida tovarlarni identifikatsiya qilish, tasniflash va sertifikatlashning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kosmetika mahsulotlarini tovar sifatida tasniflash uchun, ularning kimyoviy tarkibi, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari, shuningdek iste'mol xususiyatlari asos qilib olinishi lozimligi ko'rsatib berilgan.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqotning ob'yektlari va kosmetika mahsulotlarining kimyoviy tarkibini tahlil qilish usullari**», deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston, Rossiya, Germaniya davlatlarida ishlab chiqarilgan shampunlar, Hindistonda ishlab chiqarilgan tarkibida 2% ketokonazol saqlovchi dorivor shampunlar va Rossiyada ishlab chiqarilgan tarkibida pigmentlar saqlagan bo'yovchi shampunlar, shuningdek Fransiyada ishlab chiqarilgan tarkibida 5% amorolfin moddasini saqlagan tirmoq zamburug'larini davolovchi laklar tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilgan.

Kosmetika mahsulotlarining sifat va xavfsizligini ta'minlovchi ko'rsatkichlari organoleptik (GOST 29188.0—91) va zamonaviy fizik- kimyoviy tahlil usullari yordamida tadqiq etilgan. Shampunning kimyoviy tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, infraqizil spektroskopiya, refraktometriya, atom absorbtion spektrometriya kabi zamonaviy fizik kimyoviy usullar yordamida tadqiq etilgan. Kundalik foydalaniladigan kosmetik vositalardan biri bo'lgan shampunlarda odatda keng qo'llaniladigan sintetik konservantlar ya'ni, metil va propilparabenlarni aniqlash uchun YSSX usulidan foydalanildi. Tadqiqotlar LabSolutions dasturi bilan

jihozlangan LC-20 Prominence xromatografik tizimida («Shimadzu» Yaponiya) amalga oshirildi. Unda to‘lqin uzunligi oralig‘i 190 dan 700 ±1% nm gacha bo‘lib, Xromatografiya tadqiqoti quyidagi shartlar asosida amalga oshirildi: kolonka: Acclaim 120 (C18-faza, 3 mkm, 2,1×150 mm); xarakatchan faza: kaliy digidrofosfat va metanol eritmasi, kolonka termostati harorati: 30°S; kiritiluvchi hajm: 10mkl namunaviy shampunning eritmasi. Shampunning IQ-spektrometrik tahlili Agilent Technologies CARY 630 IQ spektrometrida 7000-350 sm⁻¹ yutilish diapazonidan foydalangan holda amalga oshirildi. Shampun tarkibidagi og‘ir metall tuzlari TRACE 1200 atom absorbtion spektrometrida, suv va uchuvchan moddalar miqdori esa, MV-25 OHAUS namlik o‘lchagichida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot davomida olib borilgan tajribalar natijalarini muhokama qilish**», deb nomlangan uchinchi bobi – shampunning kimyoviy tarkibini yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, infraqizil spektroskopiya, refraktometriya, atom absorbtion spektrometriya kabi zamonaviy fizik kimyoviy usullar yordamida tadqiq etish natijalarini muhokama qilishga bag‘ishlangan.

Kosmetika mahsulotlaridan insonlar gigiyenik va estetik maqsadlarda kundalik vosita sifatida foydalanmoqda, Respublikamiz miqyosida ham kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo‘lishiga qaramay, kosmetika mahsulotlarining importi yildan yilga ortib bormoqda. Respublikamizga import va undan eksport qilingan, shuningdek ishlab chiqarilgan kosmetika mahsulotlarining so‘nggi uch yil ichidagi hajmi 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm O‘zbekiston Respublikasida kosmetika mahsulotlarining eksport-importi va ishlab chiqarilishi to‘g‘risida ma’lumot.

Hozirgi kunda jahon bozorida sochni parvarish qilish mahsulotlari 36 milliard AQSH dollariga baholanmoqda. 1- rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda shampunlar ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 10627,1 tonnani, 2020-yilda 8851,8 tonnani, 2021-yilda 8201,7 tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yanvar-sentyabr oylarida shampun ishlab chiqarish atigi 590,7 tonnani tashkil etgan. Ushbu

ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida shampunlar ishlab chiqarish yildan yilga kamayib bormoqda. Demak, respublikamiz bozorida import qilingan shampunlar miqdori tobora ortib bormoqda. Tadqiqot davomida kosmetik mahsulotlar tarkibidagi parabenlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlash, shampunlarning fizik kimyoviy ko'rsatkichlarini tadqiq etish orqali me'yoriy hujjat talablariga muvofiqligini tekshirish, shampunlar tarkibidagi og'ir metall tuzlarini atom absorbtсион spektrometriya usulida aniqlash borasida ilmiy ishlar olib borilgan.

Kosmetika sanoatida konservantlar sifatida parabenlardan me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda, keng foydalaniladi. Parabenlar para - gidroksibenzoy kislotasining efirlari hisoblanadi. Keng tarqalgan parabenlarga metilparaben, etilparaben, propilparabenlar, nisbatan kam tarqalganlariga esa izobutilparaben, benzilparaben va butilparabenlar kiradi. Ushbu parabenlarning fizik- kimyoviy hossalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Parabenlarning fizik-kimyoviy hossalari

Nomi	Moddaning formulasi	Molekulyar massasi g/mol	Qaynash temperaturasi °C	Suyuqlanish temperaturasi °C	Zichligi kg/m ³
Metilparaben	C ₈ H ₈ O ₃	152	275	127	1.46
Etilparaben	C ₉ H ₁₀ O ₃	166	298	115-118	1.1708
Propilparaben	C ₁₀ H ₁₂ O ₃	180	133	96-99	1.063
Butilparaben	C ₁₁ H ₁₄ O ₃	194	156	67-70	1.168

Parabenlar shampunlar, konditsionerlar, gellar, namlovchi moddalar, tish pastalari, spreylar, dezodorantlar, sovunlar, kremlar, toniklar, losonlar va dekorativ kosmetika kabi kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Biroq olib borilgan tadqiqotlar davomida Metilparaben ultrabinafsha nurlari ta'sirida DNK molekulasi o'zgarishiga sabab bo'lishi va terining erta qarishini keltirib chiqarishi, bundan tashqari parabenlar ta'sirchan terilarda allergik kasalliklardan kontakt dermatitni keltirib chiqarishi aniqlangan.

Shampun mahsulotlari uchun yangi TIF TN kod raqamlarini ularning kimyoviy tarkibi asosida ishlab chiqish maqsadida shampunlar tarkibidagi parabenlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida tekshirildi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra shampunlar namunalaridagi metilparaben va propilparabenning kimyoviy tarkibi va miqdori 2- jadvalga keltirilgan.

2-jadval

O'rganilgan shampunlar namunalarida metilparaben va propilparabenning kimyoviy tarkibini miqdoriy aniqlash natijalari

t/r	Namunalar	Parabenlar %	Umumiy
-----	-----------	--------------	--------

№		metilparaben	propilparaben	ulushi %
1	Namuna Тик-так детский	0,21	0,03	0,24
2	Namuna FABI	0,007	0,001	0,008
3	Namuna GUGU	0,01	0,05	0,06
4	Namuna НАЯТ	-	0,17	0,17
5	Namuna NIVEA men	0,14	0,01	0,15
6	Namuna Чистая Линия	0,52	-	0,52

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki tarkibida eng kam paraben saqlagan shampun FABI shampuni eng ko'p miqdorda esa "Чистая Линия" shampun namunasida aniqlangan.

FABI Shampunining xromatogrammasi 2-rasmda ko'rsatilgan.


```

Sample Name      : Smp of FABI SHAMPOO. 1
Sample ID       : Smp of FABI SHAMPOO. 1
Data Filename    : Smp of FABI SHAMPOO. 1.lcd
Method Filename  : Methylparaben and Propylparaben.lcm
Batch Filename   :
Vial #          : 1-2
Injection Volume : 20 uL
Date Acquired   : 20.09.2021 14:51:14
Date Processed  : 20.09.2021 15:39:27
Sample Type     : Unknown
Acquired by    : System Administrator
Processed by    : System Administrator

```

<Chromatogram>

mV



2-rasm FABI shampuni namunasining xromatogrammasi

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari tarkibidagi parabenlarni me'yorlashtirish bo'yicha normativ hujjat mavjud emasligi sababli tadqiqot davomida "Parfyumeriya-kosmetika mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida"gi № 1223/2009 sonli Yevropa reglamenti va Bojxona ittifoqining 2011 yil 23 sentyabrdagi 799-son komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan "Parfyumeriya-kosmetika mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida"gi 009-2011-son texnik reglamentida berilgan va ruxsat etilgan me'yordan foydalanildi.


Reglamentlardagi talablarga muvofiq parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarida foydalanishga ruxsat berilgan konservantlar ro'yxati, shu jumladan kosmetika mahsulotlarida har bir ruxsat etilgan paraben uchun 0,4% va ular(efirlar)ning aralashmasi uchun - 0,8% etib belgilangan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 6-namuna "Чистая Линия" shampunida parabenlar miqdori me'yoriy talablardan yuqori, ya'ni faqat metilparabenning o'zi

0,52% miqdorida aniqlandi. Boshqa namunalar esa meyoriy xujjatlar talablariga muvofiq keldi. “Чистая Линия” nomli shampun namunasi tarkibidagi metilparabenning xromatogrammasi 3- rasmda keltirilgan.

Sample Name	: Smp of ЧИСТАЯ ЛИНИЯ. 1		
Sample ID	: Smp of ЧИСТАЯ ЛИНИЯ. 1		
Data Filename	: Smp of ?????? ??????. 1.lcd		
Method Filename	: Methylparaben and Propylparaben.lcm		
Batch Filename			
Vial #	: 1-7	Sample Type	: Unknown
Injection Volume	: 20 uL		
Date Acquired	: 20.09.2021 17:36:23	Acquired by	: System Administrator
Date Processed	: 20.09.2021 17:47:48	Processed by	: System Administrator

<Chromatogram>




3- rasmda. “Чистая Линия” nomli shampun namunasining xromatogrammasi.

Xulosa qilib aytganda, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida olib borilgan tadqiqotlar kosmetika mahsulotlarining namunalari tarkibidagi parabenlarni YUSSX usuli yordamida 30 daqiqa davomida tezkor va samarali aniqlash imkonini berishi amalda isbotlandi. Shuningdek, ushbu usulni “ekspres” usul sifatida bojxona organlari amaliyotida foydalanish uchun tavsiya etildi.

Zamonaviy shampunlar bir necha faol moddalarning aralashmasidan iborat bo‘lib, ularning asosiy komponenti suv (80%) hisoblanadi. Shampunlar tarkibiga sirt faol moddalar, quyuqlashtiruvchi moddalar, konservantlar, bo‘yoqlar, erituvchilar ham kiradi. Bundan tashqari, ular tarkibida oqsillar, minerallar, vitaminlar, mikroelementlar, yog‘lar, aminokislotalar, o‘simlik ekstraktlari bo‘lishi mumkin.

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida sifat va miqdor jihatidan aniqlangan parabenlarning shampunlar tarkibida mavjudligi Agilent Technologies CARY 630 IQ-Furye-spektrometrida tadqiq qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra namunalar tarkibi ularning markirovkadagi tarkibi bilan mosligi aniqlandi (spektrlar kutubxonasidagi p-gidroksimetilbenzoat (251) IQ-spektri bilan 87.8 % o‘xshashligini ko‘rsatdi). Shampun namunalari tarkibida uchraydigan parabenlarning IQ - spektrlaridan namunalar 4-rasmda keltirilgan.



4- rasm. “Тик-так детский” nomli shampun namunasi ning IQ- spektri.

Tadqiq qilingan parabenlar bir-biridan alkil radikali bilan farq qilishi sababli, ularning IQ-spektrlaridagi o‘ziga xos yutilish chiziqlari ayni shu guruhlarining deformatsion tebranishlari sohasida kuzatiladi. Shu sababli, namunalar IQ-spektrlarining 400 – 2000 cm^{-1} sohasi kengaytirilgan holda keltirildi. Spektrlarning qo‘shbog‘ sohasida C=O guruhi valent tebranishlariga tegishli (1650-1700 cm^{-1}) va aromatik halqaning tekislik bo‘ylab tebranishi natijasida yuzaga kelgan chiziqlar (1480-1620 cm^{-1}) mavjud. Shuningdek, halqaning p-almashtirilganligini tasdiqlovi halqaning deformatsion tebranishi natijasida yuzaga kelgan yutilish chizig‘i 760 cm^{-1} da kuzatiladi. Bulardan tashqari, aromatik halqa tutgan birikmalarda halqaning deformatsion tebranishlariga xos yutilish chiziqlari 1350-1100 oraliqda ham kuzatiladi, masalan halqaning kengayib kichrayishi natijasida yuzaga kelgan chiziqlar kabi.

Metilparaben IQ-spektridagi 1450 cm^{-1} yutilish chizig‘i metil guruhi deformatsion tebranishlari natijasida yuzaga kelgan chiziqdir. Qolgan namunalarda ushbu guruh yutilish chizig‘i kislorod atomlari induktiv effektining pasayishi tufayli qisman yuqori chastotali sohaga siljigan.

Namuna spektrlarining 1000-1300 cm^{-1} sohasidagi yutilish chiziqlari efir bog‘i (C-O) hamda para holatdagi C-O guruhi valent tebranishlari natijasida yuzaga kelgan chiziqlardir.

Shampunlarning sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini hamda organoleptik va fizik - kimyoviy xossalarni me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiqi pH-metriya, titrlash, refraktometriya usullari yordamida tadqiq etildi. (3-jadval).

3-jadval

Shampun namunalarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Namuna raqami	Shampun namunalarining nomlari	Ko'rsatkichlarning nomlanishi			
		pH- muhiti	Xloridlar massa ulush, % dan ko'p emas	quruq moddalarning massa ulush, %	Ko'pik xosil qilish hususiyati, mm eng kamida
	Me'yoriy hujjatda	5,0-8,5	6	10-27	100
1	Чистая Линия	5,86	1,2	18,17	205
2	NIVEA men	4,30	1,2	21,2	200
3	GUGU	5,70	0,34	7,47	210
4	НАУАТ	5,92	0,95	9,14	205
5	FABI	5,86	1,1	8,33	250
6	Тик-так детский	5,31	2,4	13,59	180

Me'yoriy hujjat talabiga muvofiq pH - muhitining me'yor ko'rsatkichi shampunlarda 5-8,5 darajada bo'lishi belgilangan. 1-6 namunalar tarkibida eng past ko'rsatkich 5,31 va eng yuqorisi 5,92 bo'lsa, 2-namunaning ko'rsatkichi me'yor darajasidan pastroq, ya'ni 4,30. Bu esa uning me'yoriy hujjat talablariga muvofiq emasligini ko'rsatadi.

Shampunlar tarkibida ko'p miqdordagi ingrediyentlarning qo'llanilishi, ushbu kosmetika mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichini doimiy nazorat qilish va tartibga solib turishni talab qiladi. Shampunlar sifatining organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari GOST 31696 – 2012 da belgilab qo'yilgan. Zaharli elementlarning tarkibiga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi SanQvaM 0340-16 sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyena me'yorlariga muvofiq me'yorlashtirilgan.

Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarining tarkibida mishyak, qo'rg'oshin va simob kabi zaharli birikmalar bo'lishiga ruxsat etilmaydi.

Barcha shampun namunalaridagi Pb, As va Hg tarkibini atom absorbtсион spektrometriya usuli bilan aniqlash uchun Kanadada ishlab chiqarilgan TRACE-1200 markali spektrometrdan foydalandik. Bu usul mahsulotning quruq yoki nam kullash usuli bilan minerallashuviga va mineralizat eritmasidagi elementning konsentrasiyasini olovli atomik yutish usuli bilan aniqlashga asoslangan.

Atom absorbtсион spektrometriya usuli tadqiqotlar natijalariga ko'ra barcha shampun namunalari tarkibida Pb, As va Hg kabi og'ir metallarning tuzlari aniqlanmadi(4 jadval).

4-jadval

AAS yordamida o'rganilgan Shampun namunalarida og'ir metall tuzlarini aniqlash natijalari

№	Namuna nomi	Pb(mg/dm ³)	As(mg/dm ³)	Hg(mg/dm ³)
1	Чистая Линия	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi
2	NIVEA men	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi
3	GUGU	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi
4	НАУАТ	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi
5	FABI	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi
6	Тик-так детский	aniqlanmadi	aniqlanmadi	aniqlanmadi

Shunday qilib, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, o'rganilgan shampunlarning barcha namunalari O'zbekiston Respublikasi San QvaM № 0340-16 sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyena me'yorlariga muvofiq xavfsizlik talablariga javob berishini ko'rsatdi.

Shuningdek, ushbu bobda TIF TNga muvofiq kosmetika mahsulotlari, shuningdek, davolovchi kosmetika mahsulotlari kodini aniqlash va nazorat qilish usullarini taxlil qilish natijalari keltirilgan.

Tovarlarni tasniflashning asosiy talqin qoidalari (ATQ)ga ko'ra, yuridik maqsadlarda TIF TNda tovarlarni tasniflash tovar pozitsiyalari matnlari va bo'limlar yoki guruhlariga tegishli izohlar asosida amalga oshiriladi. Bunga ko'ra TIF TN tovar pozitsiyalarining nomlari va TIF TN bo'limlari yoki guruhlariga izohlar ustuvor hisoblanadi, ya'ni tovarlarni tasniflashda birinchi navbatda hisobga olinadi va tovar pozitsiyalari va izohlar bir xil maqomga ega.

TIF TNning "Kimyo va turdosh sanoat mahsulotlari" deb nomlangan VI bo'limi uchun 2 izohga ko'ra 3004, 3005, 3006, 3212, 3303, 3304, 3305, 3306, 3307, 3506, 3707 yoki 3808 chakana savdo uchun dozalar shaklida qadoqlangan tovarlar TIF TNning boshqa tovar pozitsiyalariga kiritilishi mumkinligiga qaramay, ushbu tovar pozitsiyalariga kiritilishi kerak.

Shu bilan birga, TIF TNning "farmasevtika mahsulotlari" deb nomlangan 30 guruhga berilgan 1- izohning (d)-bandining matniga ko'ra, "TIF TN ning 3303-3307 tovar pozitsiyalariga kiritilgan tovarlar, hatto ular terapevtik yoki profilaktik xususiyatlarga ega bo'lsa ham bu guruxga kiritilmaydi. "Shunday qilib, terapevtik va profilaktik ta'sirga ega faol komponentlarni o'z ichiga olgan 3303 - 3307 tovar pozitsiyalariga kiritilgan tovarlar TIF TNning 30 guruhidan unga berilgan 1-izohning (d) bandiga muvofiq chiqarib tashlanadi.

Biroq tirnoq zamburug'ini davolashga mo'ljallangan laklar tarkibida - amorolfin gidroxloridi 64 mg (amorolfin 57,4 mg bo'yicha) va yordamchi moddalar - triasetin (gliserol triasetat), metil metakrilat, trimetilammonio etilmetakrilat xlorid kabi davolovchi faol moddalarni saqlagani tufayli bu mahsulotni bojxona boji stavkasi 0% bo'lgan 3004 90 000 2 kodi bo'yicha dorivor mahsulot sifatida tasniflashga urinishlar oqibatida baxsli va munozarali xolatlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida biz tomonimizdan davolovchi laklar uchun DBQning Markaziy bojxona laboratoriyasiga O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga quyidagi yangi kod raqamlarini kiritish taklif etilgan (5 jadval).

Davolovchi laklar uchun taklif etilgan yangi TIF TN kod raqamlari

Amaldagi TIF TN bo'yicha tovar kodi	Taklif etilayotgan yangi TIF TN kod	Tovar tasnifi
3304 30 000 0	3304 30 000	- manikyur va pedikyur vositalari:
	3304 30 000 1	-- tarkibida davolovchi moddalar saqllovchi laklar
	3304 30 000 9	-- boshqa manikyur va pedikyur vositalari

Shampunlar tarkibidagi konservantlar, jumladan, parabenlarning belgilangan me'yordan ortiqligi inson terisiga va umumiy salomatligiga salbiy tasir etishi Angliyalik olim F.Darbdening 2004 yildagi maqolasida keltirib o'tilgan. Buni inobatga olgan holda, tadqiqot davomida shampun namunalari tarkibidagi parabenlar YUSSXda sifat va miqdor jihatidan tahlil qilindi va deyarli, barcha shampunlarda parabenlar mavjudligi aniqlandi.

O'zbekistonga import qilinayotgan va undan eksport qilinayotgan kosmetika mahsulotlarining shu jumladan shampunlarning xavfsizligi ta'minlash va inson salomatligiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida, zamonaviy fizik-kimyoviy usullarni qo'llash orqali shampunlar tarkibida davolovchi moddalarning va parabenlarning mavjud yoki mavjud emasligiga asoslangan holda, DBQning Markaziy bojxona laboratoriyasiga O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga quyidagi yangi kod raqamlarini kiritish taklif etilgan (6 jadval).

Shampunlar uchun taklif etilgan yangi TIF TN kod raqamlari

Amaldagi TIF TN bo'yicha tovar kodi	Taklif etilayotgan yangi TIF TN kod	Tovar tasnifi
3305 10 000 0	3305 10 000	- shampunlar:
	3305 10 000 1	-- tarkibida davolovchi moddalar saqllovchi
	3305 10 000 2	- - tarkibida paraben saqlaydigan (parabenli shampunlar)
	3305 10 000 3	-- tarkibida soch uchun buyoqlar saqllovchi
	3305 10 000 9	-- boshqalar

Ushbu taklif etilgan yangi xalqaro tovar kodlari Uyg'unlashgan tizim tovarlar nomenklaturasi asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi TIF TNning navbatdagi yangi tahririga kiritish uchun DBQ tomonidan qabul qilindi.

Dissertatsiyaning "**Kosmetika mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayonini**

takomillashtirish”, deb nomlangan to‘rtinchi bobida kosmetika mahsulotlarini sertifikatlashtirish maqsadida identifikatsiyalash, “Shampunlarni ishlab chiqarish bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma” TI 306305746-01: 2020 va shampunlarni muvofiqligini baholash jarayonida sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun kompleks sinov dasturi ishlab chiqish, kosmetika mahsulotlarini sertifikatlashtirishda identifikatsiya qilish va soxtalashtirilishini aniqlash masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilgan va umumlashtirgan holda GOST 31696 – 2012 talablari asosida “Shampunlarni ishlab chiqarish bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma” TY 306305746-01: 2020” ishlab chiqildi. Ushbu texnologik yo‘riqnoma Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi aholini sanitariya-epidemiologiya o‘soyishtaligi markazi Toshkent viloyati boshqarmasi bilan kelishildi va “POLIPAPER PRINT” MCHJ korxonasi ishlab chiqarishiga joriy etildi. Shuningdek, shampunni amaldagi me‘yoriy hujjat talablariga muvofiqligini baholash va tasdiqlash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro hamda milliy qonunchilik talablari o‘rganilib, ushbu talablar asosida shampun uchun kompleks sinov dasturi ishlab chiqildi va O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati Davlat muassasasining barcha hududiy filiallari (sertifikatlashtirish idoralari) amaliyotiga joriy etish uchun tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi. Kosmetika mahsulotlari orasida shampun deyarli har kuni foydalaniladigan ommabop gigiyenik- kosmetika mahsuloti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasiga shampun mahsulotining import va eksport hajmi 7- jadvalda keltirib o‘tilgan.

7-jadval

7-jadval shampun mahsulotining import-eksport hajmi ma‘lumotlari

TIF TN bo‘yicha tovar kodi	2020 yil		2021 yil	
	Miqdori (tonna)	Qiymati (ming doll.)	Miqdori (tonna)	Qiymati (ming doll.)
3305 10	IMPORT			
	2074,042	11977,358	2353,361	14466,778
	EKSPORT			
	33,810	613,974	16,605	616,18

Shampun mahsulotlari turli xil tarkibga va xususiyatga ega bo‘lib, bozordagi harid narxlar ham turlicha bo‘lishiga qaramay, bitta TIF TN kodi bilan tasniflanadi. Ushbu shampun mahsulotlarini TIF TN kod raqamlari noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi natijasida davlat byudjetiga iqtisodiy zarar yetishi mumkin. Misol uchun, 3305 10 “Shampun” nomli tovar subpozitsiyasidagi kosmetika mahsulotlarini 3004 90 “Boshqalar (Dorivor vositalar)” subpozitsiyasida rasmiylashtirilishi, 3305 10 tovar subpozitsiyasi uchun belgilangan 20% li bojxona bojarini undirilmasligiga olib keladi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.10.2019 yildagi PQ-4470-son qaroriga asosan hozirgi kunda 3004 90 subpozitsiyasi uchun boj to‘lovi 0% , 3305 10

subpozitsiyasi uchun boj to'lovi esa 20%ni tashkil etadi).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasiga bir yilda 33.37 ming AQSH dollari miqdorida (764.15 kg) davolovchi shampun mahsuloti import qilinadi. Agar ushbu mahsulot dorivor vosita sifatida 3004 90 000 9 subpozitsiyasida emas davolovchi shampun 3305 10 000 1 tovar kodida rasmiylashtirilsa bir yilda davlat byudjetiga 6.674 ming AQSH dollari miqdorida bojxona boji undiriladi.

XULOSA

1. Ilk bor ayrim kosmetika mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va ularning tarkibidagi qo'shimcha moddalar asosida amaldagi tovar kodlariga qo'shimcha tarzda kiritilgan yangi tovar kodlari uchun tavsifnomalar va izohlar tayyorlandi.

2. Ayrim kosmetika mahsulotlarining tovar holatini belgilovchi organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari hamda iste'mol hususiyatlariga muvofiq mazkur tovarlarning xalqaro kod raqamlarini ularning kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha moddalar asosida belgilash tavsiya etildi.

3. Ayrim shampun mahsulotlarining sifati va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholashning tezkor va samarali usullari ishlab chiqildi va bojxona laboratoriyalari amaliyotiga joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasiga tavsiya etildi.

4. Ilk bor shampunlarni yangi turlarini ishlab chiqish va sog'lom raqobatni yaratish maqsadida "Shampunlarni ishlab chiqarish bo'yicha texnologik yo'riqnoma" TII 306305746-01: 2020 xamda ushbu texnologik yo'riqnoma asosida shampunlarni sertifikatlashtirishning sifat va xavfsizlik mezonlari ishlab chiqildi.

5. Ilk bor shampunlarning kimyoviy tarkibi, tarkibidagi qo'shimchalar va qo'llanilish sohasiga asoslangan holda, shampunlar uchun - amaldagi TIF TNga xos 3305 10 000 0 kod raqami o'rniga, tarkibida davolovchi moddalar saqlovchi shampunlar uchun - 3305 10 000 1, tarkibida paraben saqlovchi shampunlar uchun 3305 10 000 2, tarkibida soch uchun bo'yoqlar saqlovchi shampunlar uchun - 3305 10 000 3, boshqalar uchun-3305 10 000 9 kod raqamlari ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi amaliyotida foydalanish uchun joriy qilindi.

6. Tirnoq laklarining kimyoviy tarkibi va qo'llanish sohasi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: 3304 30 000 1 – tarkibida tirnoq zamburug'ini davolovchi moddalar saqlagan laklar uchun, 3304 30 000 9-boshqa manikyur va pedikyur vositalari uchun yangi kod raqamlari tavsiya etildi.

7. Ilk bor shampunni amaldagi me'yoriy hujjat talablariga muvofiqligini baholash va tasdiqlash tizimini takomillashtirish maqsadida, sinov dasturi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi Davlat muassasasining hududiy filiallari (sertifikatlashtirish organlari) amaliyotiga joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ.**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЗИЁДОВА ЛОБАР БАХОДИР КИЗИ

**КЛАССИФИКАЦИЯ И СЕРТИФИКАЦИЯ КОСМЕТИЧЕСКОЙ
ПРОДУКЦИИ ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

02.00.09- Химия товаров

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СТЕПЕНЬ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан — 2023

Тема диссертации доктора философии зарегистрирована под номером В2022.4.PhD/Г1710 Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.andu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet .uz).

Научный руководитель:

Хамрокулов Махмуд Гофуржонович
доктор философии по техническим наукам
(PhD), доцент.

Официальные оппоненты:

Ахмадалиев Махамаджон Ахмадалиевич.
доктор технических наук, профессор.

Юлчиев Аслбек Бахтиёрбекович
доктор технических наук, доцент.

Ведущая организация:

Ташкентский государственный
технический университет

Защита состоится «4» V 2023 г. в «14⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021. К.60.05 при Андижанском государственном университете по адресу: 170100, Андижанское ш., ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223-88-30; факс: (99871) 223-84-33; e-mail: abshax@mail.ru

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (под номером) по адресу: г. Андижан, ул. Университетская, 129;

Автореферат диссертации разослан «13» IV 2023 года
(реестр протокола рассылки № 15 от «13» IV 2023 года.



X. Isaqov
Председатель Научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

M.M. Muminjonov
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., DSc

Sh. V. Abdullaev
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученой степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире по производству косметики и парфюмерии лидируют такие страны, как Франция, Объединенные Арабские Эмираты, Турция, США и Китай. Внедрение современных нанотехнологий в практику производства косметических продуктов, а также применение различных гомашей требует дальнейшего совершенствования методов, связанных с исследованием их состава. В связи с этим важное значение приобретает работа по обеспечению качества и безопасности поставляемой населению косметической продукции, исследованию ее химического состава физико-химическими методами и установлению критериев безопасности на основе полученных результатов.

Учитывая, что косметика и парфюмерия являются одними из объектов международной торговли в мире, для таможенных целей необходимо правильно классифицировать этот вид товаров на основе товарной номенклатуры внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД) на основе химического состава, происхождения, выполняемой функции, типа материала, из которого изготовлен товар, степени переработки и потребительских свойств товара, а также на основе правильное размещение соответствующего кода становится важным. Поэтому сегодня ведутся научно-исследовательские работы в направлении совершенствования проведения таможенной экспертизы косметической и парфюмерной продукции, либерализации внешнеторговой деятельности, идентификации товаров, определения в представленных документах товарных наименований в соответствии с текстом товарной позиции товарной номенклатуры внешнеэкономической деятельности (ТНВЭД) и сносок по разделам и группам, а также сведений о соответствии основным правилам толкования проводится.

В последние годы в стране реализуется ряд мер по обеспечению здоровья населения и достижению экономической стабильности за счет увеличения экспортного потенциала страны, поставки потребителям качественной и безопасной продукции. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи, реализуемые, в частности, по «либерализации и упрощению экспортной деятельности, диверсификации структуры и географии экспорта, расширению и мобилизации экспортного потенциала отраслей экономики и регионов, совершенствованию таможенной экспертизы». Исходя из этих задач, важное научно-практическое значение приобретает повышение экспортного потенциала косметической продукции, являющейся одной из повседневных потребностей населения, поставка населению качественной и безопасной продукции для обеспечения здоровья человека, а также изучение их химического состава, назначения применения, отдельных свойств, а также разработка и внедрение в практику товарных кодексов по ТН ВЭД.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Постановлениях и Указах Президента

Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и № ПП- 3818 от 29 июня 2018 года « О мерах по дальнейшему регулированию внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан и совершенствованию системы таможенно-тарифного регулирования», Решении Президента от 12 декабря 2018 года ПР - 4059 « О мерах по дальнейшему развитию систем технического регулирования, стандартизации, сертификации и метрологии », а также иных нормативных правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики: VII «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы.

